

## **O‘ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTINING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

**Dilshodbek Tursunboy o‘g‘li KOMILOV**

tarix fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Kokand University Andijon fililali

Andijon, O‘zbekiston

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekistonda mahalla institutining tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Unda mahallaning qadimgi davrlardagi ijtimoiy boshqaruv va o‘zini o‘zi tartibga solish tizimi sifatidagi o‘rni, o‘rta asrlar hamda mustamlaka davrida uning funksional xususiyatlaridagi o‘zgarishlar yoritilgan. Shuningdek, sovet davrida mahalla institutining cheklangan ijtimoiy rolga ega bo‘lgani hamda mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatining muhim bo‘g‘ini sifatida qayta tiklanib, huquqiy va institutsional jihatdan mustahkamlangani ilmiy asosda bayon etilgan. Tadqiqot maqsadi mahalla institutining jamiyat barqarorligini ta‘minlash, ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish va milliy qadriyatlarni saqlashdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

**Tayanch so‘zlar:** mahalla instituti, fuqarolik jamiyati, o‘zini o‘zi boshqarish, an’anaviy ijtimoiy tuzilma, ijtimoiy boshqaruv mexanizmlari, mahallaning huquqiy asoslari, ijtimoiy hamkorlik, milliy qadriyatlar.

## **ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ИНСТИТУТА МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Дилшодбек Турсунбой угли КОМИЛОВ**

доктор философии (PhD) по историческим наукам

Андижанский филиал Кокандского университета

Андижан, Узбекистан

### **Аннотация**

В данной статье анализируются исторические этапы формирования и развития института махалли в Узбекистане. Освещается роль махалли в древние периоды как формы социального управления и системы саморегуляции, а также изменения её функциональных особенностей в средневековый и колониальный периоды. Отдельное внимание уделяется ограниченной социальной роли института махалли в советский период и его возрождению в годы независимости как важного элемента гражданского общества, а также его укреплению в правовом и институциональном аспектах. Исследование направлено на раскрытие значения института махалли в обеспечении стабильности общества, развитии социального партнёрства и сохранении национальных ценностей.

**Ключевые слова:** институт махалли, гражданское общество, самоуправление, традиционная социальная структура, механизмы социального управления, правовые основы махалли, социальное партнёрство, национальные

ЦЕННОСТИ.

Tarixdan ma'lumki, insonlar jamoa tarzida yashashga intilishi va hamjihatlikda turmush qiyinchiliklarini yengib, mushkul vaziyatlarda bir-birlariga yordam berib, o'zaro ishonchli himoyachi bo'lishgan. Ushbu jarayon qadim zamonlardayoq kishilarning o'zini o'zi boshqarish organlarining dastlabki shakllari tarixan turli mintaqalarda o'ziga xos rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirgan. Sharqda bu jarayon ming yillik tarixga ega bo'lgan mahallalar institutining shakllanishi va taraqqiyoti orqali namoyon bo'lgan. Mahalla, o'zining hududiy va ijtimoiy vazifalarini bajarish orqali jamiyatning asosiy boshqaruv birligi sifatida faoliyat yuritgan. G'arb mamlakatlarida esa fuqarolar o'z istak va qiziqishlarini jamiyatdagi turli jarayonlar orqali namoyon qilish maqsadida turli uyushmalar, siyosiy partiyalar, jamiyatlar va boshqa tashkilotlar atrofida birlashishgan. Ushbu jarayonlar fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishini, shuningdek, davlat boshqaruviga fuqarolarning bevosita ishtirokini ta'minlashni maqsad qilgan muhim bosqichlarni tashkil etadi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy boshqaruvni demokratik asosda tashkil etish va fuqarolarning davlat idoralaridagi rolini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda mahallaning tarixini saqlab qolish, uning tarixiy joylarini ilmiy tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahallaning tarixiy rivojlanish bosqichlari har bir davrning ijtimoiy-madaniy o'zgarishlari, natijasida jamoalarning o'zaro aloqalari orqali shakllangan. Bu jamiyatdagi fuqarolarning manfaatlar to'qnashuvi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda o'zaro hamkorlik aloqalarini tashkil etish va bir-birini himoya qilish maqsadida turli ijtimoiy strukturalar va tizimlar yuzaga kelgan. Mahallaning jamoaning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish, himoya qilish va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan dinamik jarayon sifatida, jamiyatning turli qatlamlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilgan.

Mahalla kichik ma'muriy hudud bo'lib, o'zining turmush tarzi, qadriyatlari,

an'analari va urf-odatlarini bilan birgalikda, umumiylik asosida birlashgan kishilar jamoasi sifatida faoliyat yuritgan. Tarixning turli bosqichlarida, davrlar va tuzumlar o'zgarib borganiga qaramay, mahalla jamiyatning ijtimoiy tuzilmasining ajralmas qismi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan va jamiyatda o'zaro aloqalarni tartibga solish, bir-birini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy nazoratni amalga oshirishda muhim rol o'ynagan, shuningdek mahallaning vazifalari ham o'zgarib turgan [1;73].

Agar qadimgi Farg'ona tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qadimiy ovchilik va termachilik bosqichi noma'lum bo'lsa-da, kishilarning qishloq xo'jaligi hayotining qadimiy ko'rinishlari aholi punktlari bilan belgilangan birinchi belgilari ko'zga tashlanadi. Ular so'nggi neolit davriga yoki ilk bronza davriga, ya'ni miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklarga mansub bo'lib, arxeolog B.A. Latinin tomonidan 1928–1930-yillarda Haqqulobod shimolidagi bugungi Andijon va Namangan viloyatlari chegarasidagi Elatan posyolkasi va Norin sovxozi hududida topilgan qazishmalari tufayli, o'sha davrda loy g'ishtli uylarda odamlar yashaganligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi hamda o'sha davrda donli ekinlarni yetishtirgan va bog'dorchilik bilan tanish bo'lgan. Farg'onaning ushbu qadimgi aholisi alohida bir mahalla ko'rinishidagi turmush madaniyatiga ega bo'lganini topilgan ashyolar tasdiqlaydi, bu yerdagi aholi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanganligidan dalolat beradi [2;548].

Tarixiy manbalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'pgina aholi punktlarining nomi tarixiy jihatdan u yerda yashagan etnik guruhlarining nomlari bilan bog'liq. Masalan, O'zbekistonda Surxondaryo va Andijon viloyatlaridagi Turk-qishloq, Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysida uchraydigan Qarluq, Nayman, Qipchoq kabi joy nomlari o'tmishda ushbu hududlarda mazkur etnik guruhlarining yashaganligini anglatadi [1;73]. Vaqt o'tishi bilan bu joylarda yashovchi avlodlar o'zlarining etnik kelib chiqishini unutsalar ham, tarixiy toponimlar saqlanib qolgan. Bu joy nomlari esa hududlarning etnik tarkibi haqida muhim ma'lumot berib, o'sha davrdagi mahalliy guruhlar va ularning joylashuvi haqida dalil sifatida xizmat qiladi.

Mahalla tarixini o'rganish jarayonida tarixiy manbalarning ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, qadimda O'zbekiston hududidagi aholi asosan o'zaro yaqin kommunikativ aloqalar orqali birlashgan. Ayniqsa, IV–VII asrlarga kelib, turkiy xalqlar muhitida o'zbek xalqining shakllanishi yanada tezlashgan. Ushbu davrda iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalar, shuningdek, ijtimoiy-etnik uyg'unliklar va geografik hamkorliklar mustahkamlanib, natijada o'zbek xalqining etnik birligi shakllana boshlagan. Bu jarayon, turli ijtimoiy va etnik guruhlarining o'zaro integratsiyasi orqali, umumiy qadriyatlar va madaniy meros asosida amalga oshirilgan. Turli etnik guruhlar o'rtasidagi aloqalar va bir-birini qabul qilish, milliy madaniyatning shakllanishida muhim omil sifatida rol o'ynagan. Shuningdek, geografik va siyosiy o'zgarishlar natijasida xalqning etnik birligi mustahkamlanib, o'zbek xalqi sifatida ajralib chiqdi.

Shahar va qishloqlarning kengayishi dehqonchilik va sug'orish madaniyatining rivojlanishi bilan birga hunarmandchilikning ham yuksalishiga turtki bergan. Turk xoqonligi davriga kelib, hozirgi O'zbekiston hududidagi Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Nasaf (Qarshi), Kesh (Shahrisabz), Termiz, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, O'sh, Sayram, Jizzax kabi yirik shaharlar va ularning atrofidagi hududlarda etnik, hududiy va geografik jihatdan aholi birlashib, mahallalar shakllana boshlagan. Shahar hayotida mahallalar ma'muriy-hududiy birlik sifatida asosiy o'rin egallay boshladi, bu esa, o'z navbatida, urug'chilik tuzumining nisbatan pasayishiga olib keldi. Mahallalar o'zlarining ijtimoiy va ma'muriy funksiyalarini bajarishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatda aholi strukturasi shakllantirishda yangi ijtimoiy tuzilma sifatida faoliyat yurita boshladi. Mahalla turli hududiy birliklarni birlashtirib, o'zbek xalqining shakllanish jarayonida barqarorlik va ijtimoiy uyushqoqlikni ta'minlovchi omil sifatida tarixiy ahamiyat kasb etgan [3;296–297].

Farg'ona vodiysi, qadim zamonlarda o'ziga xos ijtimoiy va madaniy tuzilishga ega bo'lgan hudud bo'lib, arablar tomonidan bosib olinganidan so'ng mahallar yangi nomlar bilan atala boshladi. Arab xalifaligining mintaqani bosib olishidan

maqsadlaridan biri, albatta, islom dinini tarqatish va hududni ma'muriy jihatdan tartibga solish edi. Bu jarayonning bir qismi sifatida, mahallalarda masjidlar qurilishi, shuningdek, jamiyatni boshqarish va ijtimoiy muhitni tashkil etish uchun yangi institutlar yaratildi. O'rta Osiyo, jumladan Farg'ona vodiysi, arablar tomonidan bosib olingach, mahallalarga nom berish jarayoni boshlanib, ular ko'pincha diniy, me'moriy va kasbiy-hunarmandchilikga oid tamoyillarga asoslangan holda atala boshladi. Masalan, ba'zi mahallalar masjidlarning yoki diniy komplekslarning nomi bilan atalgan bo'lsa, boshqalari mahalladagi an'anaviy kasb-hunarlariga aloqador bo'lgan nomlarni qabul qildi. Bu nomlar o'z navbatida, hududning ijtimoiy va iqtisodiy hayotini aks ettirib, mahallalar orasida madaniy va ma'rifiy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Shunday qilib, Farg'ona vodiysidagi mahallalar nomlari faqat geografik yoki administrativ jihatdan emas, balki diniy va madaniy meros bilan bog'liq ravishda ham shakllandi. Bu jarayon mintaqaning islom dinini qabul qilish va yangi ijtimoiy tuzumni tashkil etish jarayonida uning madaniy, diniy va iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi [4;6].

Mahalla nafaqat ijtimoiy tuzilma sifatida, balki mustaqil shaharcha ko'rinishidagi ma'muriy-hududiy birlik sifatida ham e'tirof etilgan. O'zbekiston hududida mahallalarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi haqidagi ma'lumotlar bu jarayon ijtimoiy birlikka, jamiyat, ya'ni mahallaga asoslanishini tasdiqlaydi. Mahalla esa aynan shu jamiyatning asosi bo'lib, kishilar birligi sifatida tarixiy ildizlarga ega bo'lgan muhim institutdir. Shunday qilib, mahalla uzoq yillar davomida sivilizatsiyaning beshigi sifatida yashab kelgan va hozirda ham ushbu jarayonning davom etayotganligini ko'rsatadi. Mahalla jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar, qadriyatlar va madaniyatni saqlash, mustahkamlash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xususan mo'g'ullar hukmronligi davrida ham o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samarali boshqaruvni tashkil etishda, mahalliy boshqaruvdan voz kechmagan mahalliy an'ana va o'z boshqaruv tizimini uyg'unlashtirgan. Shu orqali avvaldan mavjud bo'lgan mahalliy boshqaruvni saqlab

qolgan. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad soliq yigʻib olish va hududni nazorat qilishni osonlashtirgan, moʻgʻul hukmdorlariga nisbatan aholi sodiqligini tekshirib borgan. Mahalla sardorlari boshqaruvi tashkil etib soliq yigʻish, tinchlik va xavfsizlikni taʼminlash, aholini biron-bir jamoaviy ishga jalb etish vazifasi yuklatilgan. Rashid ad-Dinning “Jome-ut tavorix” asarida keltirilishicha, moʻgʻullar aholidan “yasoq” nomli soliq yigʻgan va bu jarayonda mahalliy boshqaruv organidan foydalanganligini koʻrsatadi [5;15].

Mahallalar, ayniqsa Amir Temur va Temuriylar davrida sezilarli darajada rivojlanib, oʻzining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahamiyatini oshirgan. Ushbu davrda mahallalar asosan fuqarolarning mehnat faoliyati, kasb-kori va ijtimoiy vazifalariga koʻra shakllangan boʻlib, ularning nomlanishi ham ayni shu omillarga bogʻliq edi. Mahallalarning tashkil topishi va rivojlanishi ularning aholisi oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy tizimning oʻzgarishlariga ham aloqador edi. Bunda, kasb-korlar va mehnat faoliyatining turi mahallalarning ijtimoiy strukturasi va nomlanishiga bevosita taʼsir koʻrsatgan. Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand, Hirot, Buxoro, Mavr, Toshkent, Shohruhiya, Termiz, Shahrisabiz, Qarshi kabi yirik shaharlarda zargarlik, misgarlik, koʻnchilik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchilik, egarchilik, taqachilik va boshqa hunarmandchilik tarmoqlariga ixtisoslashgan [6;421], oʻziga xos nomlar bilan ataluvchi mahallalar mavjud boʻlganligi qayd etiladi. Bu mahallalar, shahar iqtisodiyotida muhim rol oʻynagan va ularning faoliyati anʼanaviy kasb-hunarlarining rivojlanishiga xizmat qilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida mahallalar quyidagicha tasvirlanadi: shaharga toʻqqiz tarnov suv kirib keladi, lekin bu suv shahardan tashqariga chiqmaydi. Qalʼa oʻzini xandaq bilan oʻrab olgan boʻlib, xandaqning tashqarisi tosh bilan qoplangan keng koʻcha bilan chegaralangan. Qalʼaning atrof-muhiti butunlay mahallalar bilan oʻralgan. Mahallalar bilan qalʼa orasidagi hududni esa xandaq chetida joylashgan keng koʻchalar ajratib turadi. Ushbu

tavsifdan shahar infratuzilmasi va mahallalarning o‘zaro integratsiyalashgan joylashuvi, shuningdek, himoya tizimi bo‘lgan xandaq va tosh ko‘chalar mavjudligi aniq ko‘zga tashlanadi Ayni paytda, “Boburnoma”da Farg‘ona davlati tarkibiga kirgan Andijon, Axbi, O‘sh, Marg‘ilon, Xo‘jand kabi shaharlarda mavjud bo‘lgan, kishilarning mashg‘uloti bilan bog‘liq bo‘lgan o‘nlab mahallalar nomlari qayd etilgan [7;29].

O‘zbekistonda o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan mustaqil davlatlar Buxoro Amrligi va Xiva. Qo‘qon xonliklari davrida ham mahalla tizimi muhim ijtimoiy va ma‘muriy institut sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Mahalla jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, diniy va madaniy hayotini tashkil etishda asosiy o‘rinni egallagan. Xonliklar davrida ham mahalla tizimi ijtimoiy boshqaruv birligi sifatida, fuqarolarni turar-joylar asosida birlashtirib, mahalliy boshqaruvning eng quyi bo‘g‘ini hisoblangan. Har bir mahallaning o‘z rahbari, odatda oqsoqol yoki “arbob”, mavjud bo‘lib, u jamiyatning umumiy ishlarini boshqargan. Diniy va madaniy markaz sifatida, mahalla atrofiga masjid, madrasalar va bozorlarga yaqin joylarda shakllangan. Diniy tadbirlar (masalan, namoz, ramazon, hayit) mahalladagi diniy tashkilotlar orqali muvofiqlashtirishda mahalla tizimi o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash tizimi bo‘lgan. Mahalliy aholi bir-biriga to‘y, dafn marosimlari, hasharlar va boshqa tadbirlarda yordam bergan.

Mahalla tizimi nafaqat ma‘muriy boshqaruvning samarali mexanizmi, balki ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, madaniy merosni saqlash va iqtisodiy resurslarni boshqarishda ham muhim rol o‘ynagan. Ushbu tizim, aholining birlashuvi va o‘zaro yordam prinsiplariga asoslanib, mahallalarning ijtimoiy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilgan. Shuningdek, mahalla tizimi madaniy qadriyatlar va an‘naviy merosni saqlash, jamiyatning ma‘naviy jihatdan rivojlanishiga hissa qo‘shgan. Iqtisodiy jihatdan esa, mahallalar o‘zlarining resurslarini samarali boshqarib, jamoaviy ehtiyojlarni qondirish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga imkon yaratgan. Bugungi kungacha ham O‘zbekiston jamiyatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki

yangi zamonaviy jihatlar bilan boyigan. Mullo Sharif o'zining "Tarixi Mullo Sharif" asarida u asosan Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotini tasvirlab bergan. Ushbu asar, ayniqsa, Xiva xonligining ichki boshqaruvi va tarixiy voqealarini tadqiq qilishda muhim manba hisoblanadi. Asar Xiva xonlari davridagi siyosiy hayot va boshqaruv tizimi haqida batafsil ma'lumot berib, mahalliy boshqaruv va jamiyatning turmush tarzini yoritadi. Xiva xonligidagi siyosiy boshqaruv tizimi, xususan, xonlarning mustahkam hokimiyati, amaldorlarning roli va jamiyatdagi turli tabaqalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqidagi ma'lumotlar asarda aniq va batafsil ko'rsatilgan. Asar, shuningdek, Xiva xonligi hududida mavjud bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy tizimni, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo va soliqqa tortish tartiblarini tasvirlaydi. Mullo Sharif tomonidan ta'riflangan voqealar va holatlar, o'sha davrning ijtimoiy tuzilishini va xalqning turmush tarzini yaxshiroq tushunishga imkon beradi [8;39].

XIX asirning ikkinchi yarmiga kelib O'zbekiston tarixida mahalla tizimi boshqaruvida tub burilish davri bo'ldi. Bu bevosita Podsho Rossiyaning istilochilik yurishlari bilan bog'liq edi. Turkiston general-gubernatorligi davrida (1867–1917) O'zbekistondagi mahalla tizimi an'anaviy va rus mustamlaka boshqaruvining aralashuvi ostida faoliyat yuritgan. Ushbu davrda mahalla tizimi o'zining ijtimoiy, ma'muriy va diniy ahamiyatini saqlab qolgan bo'lsa-da, ba'zi o'zgarishlarga duch kelgan. Rus mustamlaka ma'muriyati ta'siri yangi boshqaruv tizimi general-gubernatorlik ma'muriyati mahalla tizimini bevosita isloh qilishni maqsad qilmagan bo'lsa-da, mahallalarning boshqaruv faoliyatiga aralashgan. Rus ma'muriyati mahalla oqsoqollarini soliq yig'ishda va aholini ro'yxatga olishda vositachi sifatida ishlagan. Mahallaning oqsoqollari va boshqa vakillari rus amaldorlari tomonidan tan olinishi yoki tasdiqlanishi shart bo'lgan, bu esa mahalla tizimining mustaqilligini sezilarli darajada cheklagan. Shuningdek, mahalla masjidlaridagi faoliyat va diniy ulamolarning harakati qat'iy nazorat ostida bo'lib, ularga nisbatan o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashilgan. Bu holat mahallalarning ijtimoiy va diniy hayotidagi

mustaqillikni kamaytirib, davlatning markazlashtirilgan boshqaruviga xizmat qilgan. Diniy tashkilotlar va mahalla rahbarlarining erkin faoliyat yuritishiga cheklovlar qo'yilishi, mahallalarning jamiyatdagi o'zni va roli ustidan davlatning nazoratini kuchaytirgan. Shunday bo'lsa-da, rus hukumatining bosimi ostida ham mahalla o'z ijtimoiy birlashma vazifasini bajargan. Mahalla tizimi Turkiston general-gubernatorligi davrida o'ziga xos ravishda yashashda davom etdi [9;39–40]. Garchi rus mustamlaka ma'muriyati mahallalarga o'z maqsadlari uchun qisman integratsiyalashgan bo'lsa-da, ular milliy qadriyatlarni yo'qotmagan. Bu davrda mahalla tizimi bir tomondan an'anaviy boshqaruv shakli sifatida saqlangan, ikkinchi tomondan esa mustamlaka siyosatining bir qismi bo'lib xizmat qilgan.

Qishloq va mahallalar jamiyat tuzilmasi sifatida tarixan bir necha rivojlanish bosqichlarini o'tadi. XX asrning birinchi choragida esa ular o'zining an'anaviy shaklini qabul qildi. Sovet hukumati esa mahallaga o'tgan davrning sarqiti sifatida qarab, uni bartaraf etishga intildi. Shu nuqtai nazardan, sovet siyosati mahallalar bilan bog'liq an'anaviy milliy boshqaruv strukturalarini bekor qilish orqali sanoatlashgan va markazlashgan "ilg'or" jamiyatni qurishga harakat qildi. 1920-yillar boshlaridan boshlab, sovet hukumati mahallalarning ijtimoiy va ma'muriy vazifalarini cheklab, ularni o'z hukmronligi ostida bo'ysundirishga urindi [2;549]. Bu siyosat mahallalarning faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ularning ijtimoiy funksiyalarini va boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirdi. Shu tariqa, Sovet hukumati mahallalarni milliy boshqaruv tuzilmalarining orqada qolgan elementlari sifatida ko'rdi va ularni o'zining markazlashgan tizimi bilan almashtirishga intildi. Bu o'zgarishlar mahallalarning o'ziga xos ijtimoiy va madaniy funksiyalarini yo'qotishga olib kelib, jamiyatning mahallaviy va hududiy tuzilishini keskin o'zgartirdi.

1932-yil 17-aprelda O'zbekistonda birinchi marta shaharlardagi mahalla qo'mitalari to'g'risida Nizom ishlab chiqildi. 1935–1936-yillarda esa mahallalarda, oqsoqol boshchiligida, Mahalla qo'mitalari tashkil etildi. Ushbu qo'mitalar aholining kundalik hayotiga oid barcha ishlarni, jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy

faoliyatlarni boshqarish uchun tuzildi [10;261]. Mahalla qo'mitalarining raisi bu ishlarni o'z zimmasiga olib, qo'mita a'zolari bilan birgalikda jamiyatdagi o'zgarishlarni amalga oshirishga mas'ul bo'lgan. Bu bir tomondan, mahallalar faoliyatini markazlashtirgan, boshqa tomondan esa, sovet hokimiyatining ijtimoiy boshqaruvni kuchaytirish siyosatini amalga oshirishda muhim vositaga aylangan.

Mahalla qo'mitalarining tashkil etilishi ikki yo'nalishda katta ta'sirga ega bo'ldi. Birinchi tomondan, bu amaliyot mahallalar faoliyatini markazlashtirgan bo'lib, mahallaning ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini tizimli boshqarish imkonini yaratdi. Ikkinchi tomondan esa, Sovet hukumati uchun bu qo'mitalar o'zining siyosiy va ijtimoiy boshqaruvni kuchaytirishdagi asosiy vositaga aylandi. Sovet hokimiyati mahallalar orqali aholining kundalik hayotini nazorat qilish, jamiyatda olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarga muvofiqlik yaratish, shuningdek, markaziy hukumatning qarorlarini amalga oshirishni ta'minlashni maqsad qilgan edi.

Ikkinchi Jahon urushi davrida mahalla baynalmilalchilik xususiyatini namoyon etdi. Urush davrida mahalla qo'mitalari, armiyaga chaqiruvni tashkil etish, aholidan posilka jo'natish, ko'chirilgan aholi va bolalarni joylashtirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishda faol ishtirok etdi. Shuningdek, mahallalar ijtimoiy hamjihatlik va milliy birlashuvda muhim ro'l o'ynagan. Sovet hukumati an'anaviy boshqaruv shakllarini, jumladan mahallani, feodal va diniy tizimning qoldig'i sifatida qaragan. Shu sababli, mahalla oqsoqollarining vakolatlari sezilarli darajada cheklangan bo'lib, ularning jamiyatdagi roli va ta'siri markazlashtirilgan davlat tomonidan boshqarilgan tizimga moslashtirildi. Mahalla ijtimoiy boshqaruvning asosiy bo'g'ini sifatida saqlangan, ammo diniy va madaniy faoliyatlar qattiq nazorat qilingan. Sovet hokimiyati mahallani aholining statistik ro'yxatga olinishi va soliqlarni to'plash jarayonida vosita sifatida foydalangan.

Kolxozlar va kollektivlashtirish davrida (1930–1940-yillar) mahallalar eski ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini yo'qotib, kolxoz va sovxoz tizimlari bilan

almashtirilgan. Masjid va diniy o'quv yurtlari yopilgan yoki boshqa maqsadlarda foydalanilgan. Bu mahallalarning diniy va madaniy markaz sifatidagi rolini zaiflashtirdi. Mahalliy boshqaruvga tizimiga mahalliy ziyoli shaxslarni tayinlanish o'rniga rahbarlik lavozimlariga ko'proq sovet mafkurasini qo'llab-quvvatlovchi shaxslar tayinlangan. Sovet davrining yuksalish davrida (1950–1980-yillar) Mahalla tizimi davlat tomonidan nazorat qilinadigan ijtimoiy tashkilotga aylantirildi. Uning asosiy vazifasi jamoatchilik ishlarini muvofiqlashtirish, aholining turmush sharoitlarini yaxshilash va sovet mafkurasini targ'ib qilishdan iborat edi. Mahallalar, shuningdek, turli ijtimoiy dasturlarda faol ishtirok etgan, jumladan, sanitariya va tozalikni ta'minlash, aholini bog'cha, maktab va kasalxonalar bilan ta'minlash kabi sohalarda faoliyat yuritgan. Mahalla tizimi sovet hokimiyatining ijtimoiy boshqaruvni mustahkamlash va o'z mafkurasini jamiyatga singdirish siyosatini amalga oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Bu tizim, davlat tomonidan belgilangan maqsadlar asosida, aholining ijtimoiy va madaniy faoliyatini nazorat qilish va boshqarish mexanizmiga aylangan. Faqatgina Sovet davrining so'nggi yillari (1980–1991-yillar) An'anaviy qadriyatlarning qayta tiklanishi, 1980-yillarda, mahallalarning diniy va milliy vazifalari qisman tiklana boshladi [10;262]. Sovet mafkurasining zaiflashishi mahallalarning an'anaviy boshqaruv shakli sifatida tiklanishiga sharoit yaratdi. Odamlar mahallalar orqali o'z urf-odatlarini, to'y va boshqa tadbirlarni tashkil qilish qayta tiklana boshladi. Tahlil natijalariga ko'ra sovet davrida mahalla tizimi an'anaviy ijtimoiy institutdan ko'ra, davlatning bir qismi sifatida faoliyat yuritgan. Uning diniy va milliy xususiyatlari kamaytirilib, iqtisodiy va ijtimoiy nazorat mexanizmiga aylantirilgan. Biroq mahallalar, ayniqsa, qishloq joylarida, xalq urf-odatlarini saqlash va o'zaro yordam markazi sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Agar mahalla tarixini kengroq tahlil etadigan bo'lsak, qadimdan shakllangan o'zbek xalqiga xos bo'lgan qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari shahar va qishloqlardagi hayot tarzi bir xil vazifaga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari mahalla negizi asosida shakllanganligi hamda o'zaro

etnik munosabatlar ijtimoiy-hududiy, shuningdek, oilaviy munosabatlar asosida yaqin qarindoshlik aloqalari shakllanganligini ko'rsatadi. O'zbek mahalla termini mohiyatan qishloq va shahar aholisiga nisbatan ham qo'llanilganligi e'tiborlidir.

Andijon shahri hududi XIX asr oxirigacha asosan, hozirgi "Eski shahar" deb atalgan qismidan iborat edi, xolos. Shahar mahallalari ma'lumotlarga qaraganda 30 ta atrofida bo'lgan. O'rta asrlardan boshlab shahar mahallalari ma'muriy-territorial jihatdan to'rt dahaga bo'lingan: birinchi "Soy daha", ikkinchi "Qirlik daha", uchinchi "O'yliq daha", to'rtinchi "Olayliq daha". Ushbu dahalar bizning davrimizdagi bir necha mahallalarni birlashtiruvchi uchastkalarga to'g'ri keladi. Har bir dahaning dahaboshisi amin bo'lib, ular mingboshilar orqali shahar hokimiga bo'ysungan. Andijon vohasining Qoradaryo, Moylisuv, Oqbura, Aravonsoy mahalla aholisi o'zining o'sha davrdagi dehqonchiligi, hunarmandchiligi, savdo-sotiq ishlari bilan alohida ajralib turgan [11;10].

N. Abdulahatov va O'. Eshonboboyevning "Marg'ilon mahallalari tarixidan (Mashad dahasi. 1-kitob)" asarida Farg'onaning qadimiy shaharlaridagi mahallalar haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Marg'ilon shahri Markaziy Osiyoning boy tarixga ega qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan. Bu geografik holat Marg'ilonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarning markazida turishini ta'minlagan va shahar asrlar davomida savdo va madaniy almashuvda muhim o'rin egallab kelgan. Somoniylar, Qoraxoniylar, Amir Temur va Temuriylar, shuningdek, Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Qo'qon xonligi hukmronligi davrida Marg'ilon Farg'ona vodiysiga bostirib kirgan yovlardan himoya qiluvchi strategik qalqon sifatida xizmat qilgan. Shu sababdan, shaharning urf-odatlarini, an'analari va aholisining etnik tuzilishida o'ziga xos xususiyatlar saqlanib qolgan.

Marg'ilon shahrini Farg'ona vodiysi xalqlarining eng qadimiy manzilgohlaridan biri deb atash mumkin, chunki u nafaqat tarixiy, balki madaniy merosi va turli davrlar davomida shakllangan ijtimoiy hayoti bilan ham ajralib turadi.

Shaharning uzun tarixiy yo‘li, uning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishi Farg‘ona vodiysining turli xalqlari uchun muhim markazga aylanishiga olib keldi. Marg‘ilonning qadimiy manzilgoh sifatidagi ahamiyati uning madaniy yodgorliklari, sanoati va xalqaro aloqalari bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘z vaqtida nafaqat iqtisodiy, balki madaniy integratsiyaning ham muhim nuqtalaridan biri bo‘lgan. Shahar tarixining har bir bosqichi uning ijtimoiy hayotining murakkabligi va rivojlanishini aks ettiradi. XI asrdan Marg‘ilon shahri hunarmandchilik markazi sifatida yanada rivojlangan, Farg‘ona iqtisodiy hayotida ham muhim o‘rin egallagan. Marg‘ilon o‘rta asrlarda katta shaharlar tizimiga kirgan. Bu shaharning yana bir xususiyati uzoq vaqt bir joyda muqim o‘rnashib, yon-atrof hududlarga deyarli kengaymaganidir. Buning oqibatida, shahar hududi chegaralangan holda aholi o‘ta zich joylashganligini ko‘rsatadi. XVII–XIX asrlardayoq mavjud bo‘lgan yodgorliklar buzilib ketgan. Shuning uchun, bu shaharda Markaziy Osiyodagi qadimgi Termiz, Samarqand (Afrosiyob), Xiva, Buxorodagi kabi madaniy qatlamlar yaxshi saqlanmagan. Shuningdek, Marg‘ilon o‘z ahamiyati jihatdan boshqa shaharlardan kam bo‘lmagan maqomga ega bo‘lganligini ta’kidlash mumkin. Marg‘ilon mahallalari haqida ma’lumotlar ilk bor mashhur biograf, tarixchi va sayyoh Abu Sa’id Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam’oniyy (1113–1116-yillar) tomonidan yozilgan “Kitob al-ansob” (“Nasablar haqida kitob”) asarida keltirilgan. Ushbu asar Marg‘ilon shahrining qadimiy tarixini, undagi mahalliy ijtimoiy tuzilmani va aholisining nasab bilan bog‘liq an’analari haqida muhim manba hisoblanadi. Marg‘ilon shahri Farg‘onaning eng mashhur shaharlaridan ekanligini aytib, bu shaharning “Qandob” nomli mahallasini eslatib o‘tadi: “Abu Muhammad Umar ibn Ahmad ibn Abulhasan al-Qandobiy (G‘andobiy) al-Marg‘inoniydir. Marg‘ilondagi Qandob mahallasidan bo‘lib, u “al-Farg‘oniy” nomi bilan tanilgan. U hijriy 485 (1093) yilda tavallud topganligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan [12;4–5].

Farg‘ona vodiysidagi qadimiy mahallalar o‘ziga xos madaniyati, urf-odat va an’analari asosida rivojlangan. Farg‘ona vodiysi hududida yuksak moddiy va

ma'naviy madaniyatning tarixiy rivojlanishi, asosan, bu hududlardagi aholining qadimiy joylashuvi, mahalla tarzida shakllangan ijtimoiy tuzilma va o'sha davrga xos urf-odatlar va an'analar bilan bog'liqdir. Mahalla, o'z navbatida, milliy-ma'naviy qadriyatlarga asoslanib, ijtimoiy hayotning ajralmas bir qismi sifatida rivojlangan. Namangan vohasining Kosonsoy, Norin, Pop, To'raqo'rg'on, Chortoq, Chust, Uchqo'rg'on, Mingbuloq, Namangan, Uychi, Poshshootasoy, G'ovasoy, Chodaksoy kabi shaharlar va tumanlar mahallalari, o'zining tarixiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyati bilan, moddiy va ma'naviy madaniyatimizning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan. Bu mahallalar nafaqat hududiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham o'zaro birlashgan jamoalar sifatida turli davrlar davomida o'zining muhim rolini o'ynagan. Farg'ona vodiysining Qo'shtepa massivi va Yozyovon dashtlari, Sirdaryo, Isfara, So'x, Shohimardon, Isfarasoy sug'orish hududlari mahallalari urf-odatlari, boy ma'naviy merosi bilan ajralib turgan [13;19–20]. Bu hududlar mahallalari, nafaqat o'ziga xos geografik joylashuvi bilan, balki turli davrlar davomida shakllangan o'ziga xos madaniy va ma'naviy qadriyatlar bilan ham ajralib turadi. Mahallalarning ijtimoiy va madaniy ahamiyati ularning xalq hayotidagi o'rni va milliy qadriyatlarni saqlashdagi roli bilan bevosita bog'liq.

*Xulosa* o'rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda demokratik islohotlar milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarga tayangan holda tizimli ravishda rivojlantirilmoqda. Ushbu jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biri, avvalo, inson kamolotining asosi bo'lgan mahalla institutining ijtimoiy rolini yanada oshirishdir. Ayniqsa, qadimdan shakllangan xalq mentaliteti va dunyoqarashini yangi jamiyat sharoitlariga moslashtirish, fuqarolik jamiyatiga xos mezonlar va qadriyatlarni fuqarolar ongiga singdirish kabi vazifalar, sohadagi eng sermehnat va mashaqqatli jarayonlarga kiradi. O'tish davrida o'zini o'zi boshqarish organlarini zamonaviylashtirish va erkinlashtirishga qaratilgan tadbirlar milliy o'zlikni anglash, ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish va o'ziga xos rivojlanish yo'llarini izlashni talab etmoqda. Ushbu sohadagi islohotlarni chuqurlashtirishda davlatning bosh

islohotchi sifatida amalga oshirgan chora-tadbirlar natijasida, o'zini o'zi boshqarish organlari, ya'ni mahalla institutlari, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning milliy asosi sifatida muhim rol o'ynashda davom etmoqda. Bu jarayonlar mahallalarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tizimdagi ahamiyatini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Қаюмов А. XX аср бошларида Ўзбекистон худудида этник ҳолат. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2015. – 180 б.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. Конимех–Мирзоқуш. /Таҳрир ҳайъати: М. Аминов, Т. Даминов, Т. Долимов ва б. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. – 736 б.
3. Носиров Ў. Ўзбеклар шажараси этник тарихига холис назар. Қайта ишланган учинчи нашр. – Тошкент: Extremum Press, 2012. – 446 б.
4. Anorboyev A. Farg'onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rnini: O'quv qo'llanma. –Toshkent: Fan, 2022. – 148 b.
5. Ахетагуров А. Сборник летописей Академии наук СССР. – Москва, 1952. – 760 с.
6. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – 512 b.
7. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 288 б.
8. Холматов М. Тарихи Мулло Шариф. – Тошкент6 Фан ва технология, 2001. – 160 б.
9. Холиқова Р. Түркстон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида: ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан ва технология, 2017 . – 164 б.
10. О'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti vedomostlari 1961. 261-varaq.

11. Жалилов С. Юзта қишлоғу ўнта гузар таърифи (топонимик маълумотлар). – Андижон, 2011. – 102 б.
12. Абдулаҳатов Н., Эшонбобоев Ў. Марғилон маҳаллалари тарихидан. Машад даҳаси. 1-китоб. – Андижон: Андижон нашриёт-матбаа, 2012. – 84 б.
13. Жўраев Б., Турсунов С. Маҳалла – мустақил юрт таянчи. – Тошкент: Navro'z, 2012. – 278 б.